XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHI QARORI

XALÍQ DEPUTATLARÍ ELLIKQALA RAYONLÍQ KEŃESINIŃ SHESHIMI

2023 - yil 5 - iyul VI-59-73-13-194-K/23 Ellikqal'a tuman hokimligi

Xalq deputatlari Ellikqal'a tumani Kengashining 2023-yil 3-martdagi "2023-yilgi Ellikqal'a tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-54-32-13-194-K/23-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida Ellikqal'a tumani Iqtisodiyot moliya bo'limi boshlig'i M.Turabayevning taklifini muhokama etish

Xalq deputatlari Ellikqal'a tumani Kengashining 2022-yil 3-martdagi "2023-yilgi Ellikqal'a tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-54-32-13-194-K/23-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabr kungi "O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-sonli hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2022-yil 30-dekabr kungi "Qoraqalpog'iston Respublikasining 2023-yilgi budjet parametrlari haqida"gi 300/XI-sonli qarorlari va tuman Adliya bo'limining 2023 yil 26-iyundagi 5-sonli xulosasiga asosan Ellikqal'a tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i M.Turabayevning 2023-yil 26-iyun kungi 01-35-250/20-01-32/284-sonli xatidagi taklifini tinglab muhokama qilib hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24 moddalariga asosan Xalq deputatlari Ellikqal'a tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabr kungi "O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-sonli hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i

Kengesining 2022-yil 30-dekabr kungi “Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2023-yilgi budjet parametrlari haqida”gi 300/XI-sonli qarorlari ma’lumot va ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Ellikqal’a tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Turabayevning 2023-yil 26-iyun kungi 01-35-250/20-01-32/284-sonli xatidagi Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining 2023-yil 3-mart kungi “2023-yilgi Ellikqa’la tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-54-32-13-194-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2023-yil 26-iyundagi qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining 2023-yil 3-mart kungi “2023-yilgi Ellikqal’a tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-54-32-13-194-K/23-sonli qarorining tegishli bandlari quyidagicha belgilansin:

“4 Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq 219 203 251 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin”.

“5. Ellikqal’a tumani mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga 2023-yil uchun ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq 219 203 251 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin”.

“6. Ellikqal’a tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq belgilansin”.

“7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 4-ilovaga muvofiq 154 683 980 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosi hamda xarajatlar ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin”.

“8. Tuman hokimligining 2023-yilgi zaxira jamg‘armasi miqdori 5-ilovaga muvofiq 2 058 762 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin”.

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari 2023-yilda tegishli budjetlar umumiy xarajatlarining bir foizidan kam bo‘lmagan miqdorida shakllantirilishi va zaxira jamg‘armasining mablag‘lari kechiktirib bo‘lmaydigan hamda budjet tizimi budjetlari shakllanishida oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

“9. Ellikqal’a tumani mahalliy budjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq 1 065 000 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin”.

“10. Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari va xarajatlari prognozlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin”.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.K.Alimov va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.M.Turabayevlarga:

shaffoflikni ta’minlash maqsadida, mahalliy budjetdan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasidan kechiktirmay tegishli rasmiy veb-saytlariga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, davriy moliyaviy hisobotlarini, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) savdolari va amalga oshirilgan davlat haridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarning joylashtirilib borilishi yuzasidan majburiyatlar yuklatilganligi ko‘rsatib o‘tilsin;

davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan moliya yili uchun ish rejalarini moliya yilining birinchi oyida hamda nazorat tadbirlari natijalariga ko‘ra aniqlangan moliyaviy qonunbuzilishlar va ijobiy natijalar bo‘yicha ma’lumotlarni har chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

mahalliy budjet qo‘shimcha daromadlarining 30 foizini jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, o‘z rasmiy veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirishni ta’minlasin;

tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yhati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining

moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirsin;

qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lovlar stavkalari, soliq solish tartiblari va boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

Tuman budjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon, kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

ko‘rsatib o‘tilgan xarajat turlariga to‘g‘ri mablag‘ ajratilganligi va taqsimlanganligiga mablag‘ taqsimlovchilarning javobgarligi oshirilsin.

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan (ortiq bo‘lishi mumkin) miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarga ularning natijalarini joylashtirishni ta’minlasin.

6. Ushbu qarorni bajarilishini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.K.Alimov va qaror ijrosini Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **S.S.Avezov**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining
2023 yil uchun daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/R	Daromad turlari	Jami
I	**JAMI SOLIQ VA YIG‘IMLAR**	**37 583 000**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	1 550 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	900 000
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning qat’iy belgilangan soliq	0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0
6	Aksiz solig‘i, jami	0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 902 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 600 000
9	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	3 498 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	24 400 000
11	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	300 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	958 000
13	Davlat boji	0
14	Jarimalar	0
15	Xususiylashtirish	475 000
16	Davlat ulushi korxonalarining sof foydasidan	0
II	**Taqsimlanuvchi daromadlar**	**26 936 271**
1	Alkogol mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo	10 897 102
2	Mobil aloqa xizmati aksiz solig‘i	4 674 223
3	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	11 364 946
III	**Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**154 683 980**
	JAMI MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI	**64 519 271**
JAMI DAROMADLAR		**219 203 251**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
2-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga 2023 yil uchun ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

ming so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2023 yil
	shu jumladan	
1.1	Maorif	27 943 855
	-maktabgacha ta’lim	12 709 148
	-umumiy ta’lim	15 234 707
	-kadrlar tayyorlash	
1.2	Sog‘liqni saqlash	64 794 500
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	6 152 462
	-madaniyat	1 382 050
	-sport	4 770 412
1.4	Fan	
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	70 909 980
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	5 000
1.7	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	66 389
2	**IQTISODIYOT XARAJATLARI**	**19 406 074**
	shu jumladan	
2.1	Qishloq xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	
2.2	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	742 069
2.3	Obodonlashtirish	9 728 912
2.4	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	3 291 846
2.5	Veterinariya qo‘mitasi	1 359 345
2.6	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarjatlari	3 000 000
2.7	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari	1 283 902
3	**MARKAZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH XARAJATLARI**	
4	**DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI**	**15 561 602**
	shu jumladan	
4.1	Davlat hokimiyati organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	15 561 602
5	**FUQAROLARNI O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**3 323 855**
6	**ZAXIRA JAMG‘ARMASI**	**2 058 762**
7	**FUQAROLAR TASHABBUSI JAMG‘ARMASI**	**8 980 772**

	XARAJATLAR-JAMI	**219 203 251**
1	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH XARAJATLARI-JAMI**	**169 872 186**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
3-ilova

Ellikqal’a tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

№	Tuman	Korxonalar aylanmasidan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	Xususiylash-tirish
1	Ellikqal’a tumani	100	100	100	100	100	100	100	100	50

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
4-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘m

№	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfertlar
1	Ellikqal’a tumani	154 683 980

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tuman Hokimligining 2023-yilgi zaxira jamg‘armasi

ming so‘m

T/r	Tuman nomi	Zaxira jamg‘armasi
1	Ellikqal’a tumani	2 058 762

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
6-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘m

T/r	Tuman nomi	Miqdori
1	Ellikqal’a tumani	1 065 000

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023-yil 5-iyuldagi
VI-59-73-13-194-K/23-son qaroriga
7-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘m

№	Shahar va tumanlar	Daromadlar	Xarajatlar
1	Ellikqal’a tumani	64 519 271	219 203 251
Jami		64 519 271	219 203 251